

Mahmud Nomozov

"Qishlog'im"

Visit "[Qishlog'im](#)" on MotoLyrics.com

Ko'nglima orzular solgan qishlog'im,
Olis-olislarda qolgan qishlog'im,
Kelib qolarmu deb, har sahar, har shom
Ko'zlari yo'limda tolgan qishlog'im.

Mening maqsadimdan ko'p ko'nglim to'qdir,
Armon - nishoniga tegmagan o'qdir,
Orzuning izmidan hamon hayotim,
Lekin u yo'llarning adog'i yo'qdir.

Aytgin, senmasmidi men tanlagan yo'l,
Sayrga eltmasmidi men tanlagan yo'l,
Olis olislarda ovoradurman,
Borsa kelmasmidi men tanlagan yo'l?

Ko'nglima orzular solgan qishlog'im,
Olis olislarda qolgan qishlog'im,
Kelib qolarmu deb, har sahar, har shom
Ko'zlari yo'limda tolgan qishlog'im.

Visit [Mahmud Nomozov](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.